BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

# INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE FATHER IN THE EPISTLES OF "KHAMSA"

**Dilovarkxon Jurayeva**
dilovarxonjorayeva05@gmail.com
Student of Kokand State University
https://doi.org/10.5281/zenodo.20138669

**Abstract:** This article contains the interpretation of the image of the father in the epics of "Farhod and Shirin", "Farhod and Shirin", which is part of Alisher Navoi's "Farhod and Shirin". The main heroes of the Estain are what the image of their father is entrusted to the spot, through the creation of methods of interpretation and fathers in their work, through minor scientific observations, research.

**Key words:** Father's imitation, childless, righteousness, personality, respect, political knowledge, responsibility, education, upbringing.

O‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyoti miqyosida olib qaralganda ham buyuk sohibi qalamlardan biri hisoblanadi. Uning ijodi nafaqat o‘zbek, balki, butun turkiy so‘z san’atining yuksak cho‘qqisidir. Hazrat Navoiy asarlari haqida fikr yuritilganda professor Ibrohim Haqqulning ushbu so‘zlarini keltirishimiz mumkin: “Muazzam bir tog‘ bag‘ridagi boylik, bepoyon dengiz qa’ridagi duru javohirlarni to‘la qo‘lga kiritib bo‘lmaganidek, Navoiyni daho san’atkor maqomiga ko‘targan oliy hislat, fazilat, ma’naviy sifatlarning barchasini oxirigacha anglab ham, tavsiflab ham bo‘lmaydi”.[ 3, 2]

Alisher Navoiy asarlarida ma’naviyatli, ma’rifatli, komil insonni tarbiyalashga katta e’tibor qaratgan, zero ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan, beqiyos kuchdir. Ma’naviyat zamirida esa mustahkam oila qo‘rg‘oni bunyod etiladi. Hazrat Navoiy talqinida oila -ma’naviyatning o‘chog‘i, ota - ona esa shu o‘choqni mehr va mas’uliyat nuri ila qizdirguvchi mash’aldir.

Oila posbonlari sanalmish ota-ona dilbandiga, har damda jigargo‘shasiga jonini berishga tayyor turadi, butun umrini va imkoniyatlarini farzandlarining kamoli uchun sarf etadi. Alisher Navoiy o‘zining «Hayrat ul-abror» dostonida farzand uchun ota-onani hurmat qilish va ularning xizmatida bo‘lishni sharafli maqom deb ta’kidlaydi.

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun - kuningg‘a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh. [ 4.4]

Shoir ijodiyotining komil inson, jaholatga qarshi ma’rifat, adolatli jamiyat qurish kabi bosh g‘oyalari talqinida sog‘lom oila, ota-onalik mas’uliyati va farzandlarning ular oldidagi vazifa-burchlari kabi mavzularga qayta-qayta murojaat qilishi masalaning naqadar muhimligini isbotlaydi. Shu o‘rinda Hazrat Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro o‘g‘li Badiuzzamonga yozgan maktubiga e’tibor qarataylik. Badiuzzamon o‘g‘li Mo‘min Mirzoning makr-hiyla natijasida nohaq o‘ldirilganidan so‘ng otasi Husayn Boyqaro bilan yovlashib qoladi. Shunda bu holatdan dili og‘rigan Navoiy Badiuzzamonga quyidagicha maktub bitadi:

“Payg‘ambar sallallohi alayhi vassalam buyurubturkim, «Rizo ur-Robbi fi r-rizoil validi va sahat ur - Robbi fi sahat ul—validi»ya’ni Tengri Taolo rizosi ota rizosig‘a vobastadur va Tengri

Taolo g‘azabi ham ota g‘azabig‘a vobastadur. Bas kishi ota rizosin hosil qilsa, Tengri Taolo rizosini ham hosil qilmish bo‘lg‘ay va ota g‘azabig‘a uchrasa, Tengri Taolo g‘azabig‘a uchramish bo‘lg‘ay. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg‘ay yo qadam qo‘yg‘ay. Va mashoyix rahimulloh so‘zi bukim, “valaduka Rabbuka”, ya’ni otang parvardigoringdur, bu jihatdinkim, Tengri Taolo seni yo‘qdin bor qilmoqqa vasila uldur va tufuliyatdin shabob sinnig‘acha parvarish berguvchi ul.

Atodin xato kelsa ko‘rma xato,
Savob bil xato toki qilsa xato.
Atoning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodin qutqarg‘ay xudo.” [6, 1]

Navoiy bu gaplar orqali har bir otasini rozi qilgan farzanddan Alloh ham rozi bo‘lishini, bilaks kim otasini norizo qilsa Allohning g‘azabiga uchrashi mumkinligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” va “Layli va Majnun” dostonlarida ham ayni shu mavzu - ota mas’uliyati asar g‘oyasining ochilishida muhim omil vositasida talqin etilgan. Har ikki dostonda ota obrazi birinchi navbatda iymon-e’tiqodli, insofli, o‘zgalar dardiga malham bo‘la oluvchi insonlar tarzida tasvirlangan. Sabr va qat’iyat sifatlari har ikki ota portretining muhim qirralaridir. Bundan tashqari ushbu obrazlarning bir muhim sifatiy jihatlari borki, ular mehribon, saxiy, ochiqqo‘l, ma’rifatparvar, farzandini behad yaxshi ko‘ruvchi ideal otalar sifatida talqin etiladi.

“Farhod va Shirin” dostonida Farhod otasi obrazini ko‘rib chiqaylik. Dostonda Chin xoqoni sanalgan Farhodning otasi - g‘oyatda qudratli, sahiy va mehribon inson sifatida tasvirlangan. U behisob boylikka ega inson bo‘lib, Alisher Navoiy esa buni quyidagicha tasvirlaydi:

Tajammul onda Afriduncha yuz ming,
Xizona maxzani Qoruncha yuz ming.[1, 57]

Ya’ni, shoir Farhodning otasi fazilatlarini sulton sifatida Faridunga o‘xshatadi. Faridun - qadimgi Eron hukmdorlarining Pyeshdodiylar sulolasiga mansub podshox bo‘lib, Navoiy Faridunni: “Yaxshi axloqli va odil edi”- deya ta’riflab, behisob boyligi, kuch-qudrati va mashhurligi bilan ham tarixda nom qoldirganligini ta’kidlab o’tgan. Qorun ham Faridun kabi katta boylikka ega Qur’oniy qahramon. Bundan kelib chiqadiki, Navoiy Farhodning otasi obrazini ham kuch, ham boylikda qudratli hoqon sifatida ta’riflaydi. U uzoq vaqt farzand ko‘rmay yuradi. Yaratganga bo‘lgan ishonchi orqali unga farzand in’om etiladi. Bu bilan xoqonning chin e’tiqodli shaxs sifatidagi qirrasi namoyon bo‘lmoqda:

O‘g‘ulsizliqdin o‘ldi bu shikanjim,
Ki haq da’f aylag‘ay bu dardu ranjim.
Chu xoqonning bu erdi muddaosi,
Ijobat qurbini topib duosi. [ 1, 60]

Dostonda xoqon ma’rifatparvar, ilmga oshno qalb egasi sifatida ham bo‘y ko‘rsatadi. U Farhodni uch yoshligidayoq ta’lim olishiga mas’uliyat bilan kirishishi bunga misoldir.

Ato bu na’v ko‘rgach ish hisobin,
Munosib angladi ilm iktisobin.[1, 65]

Xoqon juda saxiy edi. Farhod tug‘ilishi munosabati bilan o‘z xalqiga juda ko‘p ehsonlar qiladi. Chin ahlini uch yillik soliq to‘lashdan ozod etadi.

Olib kishvar elining ehtiyojin,
Bag‘ishlab elg‘a uch yilliq hirojin.[ 1, 62]

Navoiy xoqonni farzandi taqdiriga befarq bo‘lmagan, farzand tarbiyasini ibodat darajasiga ko‘targan obraz sifatida ochib beradi. Bu bilan asarning didaktik ahamiyati, har davr uchun dolzabligi kasb etiladi. Xoqon o‘g‘lining ilohiy ishq sababli doimo mahzun yurishidan tashvishlanar va bunga chora topolmas edi. Farhodning holini ko‘rib, o‘ylab o‘yiga yeta olmaydi va o‘g‘lini xursand ko‘rish maqsadida turli o‘yinlar, bazmlar uyushtiradi. To‘rt qasr qurdirib, shu yo‘l bilan o‘g‘lining mahzun kayfiyatini o‘zgartirishga, yashashga bo‘lgan muhabbatini oshirishga umid qiladi.

Ki qilg‘ay to‘rt oliy qasr bunyod,
Bo‘lib har fasl bir qasr ichra Farhod.
Tuzub ul qasrda ishratqa asbob,
Farog’at birla no’sh etgay mayi nob.
Yasab har qasrning davrinda bog’e-
Ki, bo’lg’ay har gul andin shabcharog’e.[1. 73]

Navoiy xoqonning bu harakatlari bilan har bir otada kuzatiladigan o‘z farzandini baxtli ko‘rishga bo’lgan hadsiz istagini talqin etmoqda.

Farhod otasining e’tiborli jihatlaridan biri - o‘g‘liga davlat boshqaruvini topshirishi ya’ni o‘zining qarib qolganini, o‘g‘li esa kundan-kun yuksalayotganini o‘z vaqtida sezib, davlat ishlarini unga taqdim etishi. Navoiy bu tasvirlar orqali ota doimo farzandi yuksalishiga har jihatdan mas’ul ekanligi, unga hayotning har lahzasida tirgak bo‘lishga urunishi go‘zal tarzda tasvirlash bilan birga davlat boshqaruvida kadrlar masalasiga alog‘ida urg‘u bermoqda. Asardagi bu o‘rin davlat va jamiyatning rivojlanish tamoyillari ichida yosh, iqtidorli kadrlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘z vaqtida ularga muhim vazifalarni yuklatish

o‘ta muhim siyosiy usul ekanligiga Alisher Navoiyning xolis munosabatini belgilaydi.

Ki, chun qilmish kuhulatdin tajovuz,
Kirib mehrobig‘a qo‘ymish yoshi yuz.
Yana Farhod bo‘lmish navjavon ham,
Xiradmandu rashidu pahlavon ham.
Yo‘q ulkim Chinda xoqonliqqa loyiq,
Bori olamda sultonliqqa loyiq. [1,104]

Xoqon o‘g‘lining o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida yelkadosh bo‘ladi. Deyarli Farhodning kamol topishida har qadamida u bilan birga qadam tashlaydi.

Ki, oning ko‘nglini ozurda qilmay,
Hayoti gulbunin pajmurda qilmay.
Cherik solg‘ay Xitou mulki Ching‘a,
Yurub chekkay sipah Yunon zaming‘a.[ 1,127]

“Farhod va Shirin” dan farqli ravishda “Layli va Majnun” dostonida ikkita ota - Qays va Laylining otasi obrazlarini kuzatamiz. Qaysning otasi arablar diyori boshlig‘i, buyuk hukmdor. U juda sahiy, kambag‘al - bechoralarga mehribon, dasturxoni doimo ochiq, ilmni e’zozlovchi inson sifatida tasvirlangan. Asar boshida mol dunyosi mo‘l-ko‘l bo‘lsada u befarzand bo‘lib, doimo Tangridan to‘xtovsiz o‘z murodini tilar edi.

Moli ko‘pu umri sust payvand,
Farzandg‘a erdi orzumand.[ 2,41]

Duolari ijobat bo‘lib Alloh unga o‘g‘il farzand berdi. Farzandiga “Qays” deb ism qo‘ydi. Bu o‘z otasining ismi edi. Shu o‘rinda har ikki dostonda talqin etilgan otalar obrazidagi umumiylikni kuzatamiz:

1. Farzandsizlik motivida
2. Siyosiy-ijtimoiy muhim shaxs sifatida

Bu o‘rinda Qaysning otasi o‘z otasiga bo‘lgan faxr, iftixor, kuchli mehr timsolini o‘g‘liga ism berish orqali yorqin ochib beriladi. Navoiy bu bilan kamolot kasb etishda silsilaga asoslangan tarbiya usullarining muhim ahamiyati, tarbiyachi o‘zi amaliy namuna ko‘rsatishi lozimligiga urg‘u bermoqda. Asarda yana bir e’tiborga olish lozim bo‘lgan o‘ringa nazar solaylik:

Yetgach yoshi to‘rtu besh arosi,
Ta’lim so‘zin solib atosi.
Istatti qaboyil ichra piri,
Ta’lim berurg‘a benaziri.[ 2,46]

Ya’ni, Majnunning otasi o‘g‘li uch to‘rt yoshga yetgach unga ta’lim berish uchun donishmand ustoz izlaydi. O‘z qabilasida maqul ustoz topilmagach, boshqa qabilada ayni u izlagan ustoz, farzandi tarbiyasini ishonib topshira oladigan sohibi ilm, donishmand ustoz topilgach, o‘g‘lini yuboradi. Bu ham uning ilm-ma’rifatga intiluvchi inson ekanligidan darakdir. Qaysning otasi davlatmand, nufuzli hukmdor edi, odatiy holda bunday shaxslar har qanday yo‘l bilan o‘z istagiga yetishi mumkin edi. O‘g‘li uchun boshqa muallimni bevosita o‘z huzuriga olib kelib ta’lim berdirishi mumkin edi. U esa farzandning ta’limi uning kamolotining muhim jihati ekanligini anglagan holda, donishmand ustoz qayerda bo‘lsa, o‘sha yerga farzandini yubordi. Bu bilan otaning nafaqat mas’uliyatli ekanligi, balki, donishmandligi oshkor bo‘lmoqda.

Qays ishq tufayli telba-majnun bo‘lib qolganda otasi juda ko‘p kuyinadi.

Ham qildi atosi yig‘lamoq soz,
Ham etti anosi nabxa og‘oz.[ 6, ]

Majnunnning dardi shu qadar oliy nuqtaga yetdiki, hatto o‘z otasini tanimas holga keldi. Shunda ham ota farzandidan nolimadi, uni rad etmadi, aksincha uni bag‘riga bosdi, har damda unga suyanchiq bo‘la olishini bildirdi. Dostonda Qaysning otasi bir so‘zli va g‘ururli inson sifatida ham tasvirlangan.

Mendin tilasang rizo, rizo ber,
Bu qissa rizosini manga ber.[ 2.40]

Majnun Navfal uyidan chiqib ketganini bilgach otasi to‘shakka mixlanib qoladi. Dardi og‘ir bo‘lgani sababli vafot etadi.

Asarda yana bir ota obrazi - Laylining otasi, u qabila sardori, qizini juda yaxshi ko’rar edi.

Ul turfa qabila sarafroz,
Har ishda Xay ahlig‘a navoroz.[ 2,46]

Sardor bir necha duru - gavharlarga ega bo‘lgan holda, ularning ichida bir o‘zgachasi bor edi, u bilan juda faxrlanar edi.

Ganjida ko‘p edi gavhari dur,
Bir durin etib,vale tavohur.[ 2,47]

Bu dur esa o‘z dilbandi Layli edi. Otasi bu go‘zal va dono qiz uchun bir uyni yasatib, unga maktab qilib bergan edi.

Bir uy qilibon oto murattab,
Kim bo‘lg‘ay ul uy bu oyg‘a maktab.[ 2,49]

Uning bu harakatlari otalarda qizlarga bo‘lgan o‘zgacha mehr va muhabbat, qizlar tarbiyasi o‘g‘illar tarbiyasidanda muhimligi, qizlar tarbiyasi - bu millat tarbiyasi ekanliginining yorqin ifodasidir.

Laylining otasi Qays haqidagi gaplarni eshitib g‘amgin bo‘ladi va uning bu holga tushishiga sabab bo‘lgan qiz o‘z qizi ekanligini bilgach jahl o‘tida Qaysning otasiga maktub yo‘llaydi.

Kim topsa edi junung‘a payvand,
Majnung‘a iloj band erur band.[2, 87]

Bu so‘zlar telba Majnunni bandda saqlash mazmunida yozilgan edi. Bu bilan bir otaning ikkinchi bir otaning farzandiga nisbatan bemehrligi bayon qilingandek tuyulsada, teranroq nazar tashlansa, aslida Laylining otasi qiz bolaning sha’nini qay darajada pok saqlashga harakat qilganini payqash qiyin emas. Buni keyingi o‘rinlarda ham ko‘rish mumkin. Laylining otasi qizini asir bo‘lib obro‘si va nomusi toptalgandan ko‘ra uni o‘zi o‘ldirishni afzal ko‘radi.

Har necha ko‘zum charog‘i uldur,
Jonim toru toza bog‘i uldur.
Hushroqki aduvg‘a kam bo‘lg‘ay,
Nomus manga xarom bo‘lg‘ay.[ 2. 131]

Yuqoridagi tahlillarimizga asoslanib “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida otalar obraziga bildirgan munosabatlarimizni kichik bir jadvalda jamladik.

**“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida otalar obrazining umumiy jihatlari**

| № | | Qudratli | Behisob mulk egasi | Mehmondo‘st | Mehribon | Ma’rifatparvar | Jonkuyar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Farhodning otasi** | Shah erdi muazzam xoni oning, Dema xoni oning xoqoni oning. | Tajammul onda Afriduncha yuz ming, Hizona mahzani qoruncha yuz ming. | Kafinig bazli ummondin ham afzun, Javohir sochmog‘i kondin ham afzun. | O‘g‘ulsizlarni ham aylab navoliq, Atosizlarg‘a ham aylab atoliq. | Ato bu nav ko‘rgach ish hisobin, Munosib angladi ilm iktisobin. | Ato yuzlanmasun deb dard-u ranje, Etib har kun boshig‘a sadqa ganje. |
| 2 | **Majnunning otasi** | Kim barri arabda komrone, Bor erdi arabqa hukmrone. | Otu-tevasi hisob ila jo‘b, Qo‘y-u qo‘zisi hisobidin ko‘p. | Bechora ulusqa chorasoz ul, Xon gustaru mehmonnavoz ul. | Donish anga kasb-u jud pesha, Donish bila jud etib hamesha. | Yetgach Yoshi to‘rt-u besh arosi, Ta’lim so‘zin solib atosi. | Xam qildi atosi yig‘lamoq soz, Xam etti anosi navha og‘oz. |
| 3 | **Laylining otasi** | Ul turfa qabilada sarafroz, Har ishda Xay ahlig‘a navosoz. | Ganjida ko‘p erdi gavhar-u dur, Bir durdin etib, vale tavohur. | Xoni karamida mehri hovar, Bir qursi fatirdek muhaqqar. | Bo‘stonida yuz gul erdi xudro‘yi, Bir guldin aning dimog‘I xushbo‘y. | Bir uy qilibon oto murttab, Kim bolgay ul uy bu oyg‘a maktab. | Xar necha ko‘zum charog‘i uldur, Jonim tar-u toza bog‘I uldur. |

BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

**“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlarida otalar obrazining o‘ziga xos jihatlari**

| № | Farhodning otasi | Majnunning otasi | Laylining otasi |
|---|---|---|---|
| 1 | **Harbiy ilmlar sohibi:**<br><br>Sipohi yer yuzida qum hisobi,<br>Ne qum gardun uza anjum hisobi. | **E’tiqodli:**<br><br>Chun tangriga qildi ko‘p tazarru,<br>Topdi nekim ayladi tavaqqu. | **Ko‘ngilchan**:<br><br>Xam qildi atosi yig‘lamoq soz,<br>Xam etti anosi navha og‘oz. |
| 2 | **Ochiqqo‘l**:<br><br>Kafining bazli ummondin ham afzun,<br>Javohir sochmog‘i kondin ham afzun. | **Saxiy**:<br><br>Alqissa otasi topqach ul dur,<br>Ko‘p sochti guhar, qilib tafoxur. | **Or-nomusli**:<br><br>Xushroqki aduvg‘a kam bo‘lg‘ay,<br>Nomus manga harom bo‘lg‘ay. |
| 3 | **E’tiqodli:**<br><br>Bu erdi mutassil guft-u shunidi,<br>Xudoydin o‘g‘ul erdi umidi. | **Otasiga hurmati baland:**<br>Qays ayladi o‘g‘li otini bot,<br>Kim o‘z otasig‘a bu edi ot. | **Beshafqat**:<br>Kim tongla ul oyni hozir aylay,<br>Bir damda ishni oxir aylay.<br>O‘q ignasidin tikay libosin,<br>Xanjar suyidin ezay xinosin. |
| 4 | **Siyosiy bilimdon**:<br><br>Shax ar tig‘i siyosat qilmasa tez,<br>Chekilgay xalq aro tig‘i xunrez. | | |
| 5 | **Adolatli**;<br><br>Agar zolimg‘a yo‘qtur shahdin bole,<br>Erur ul-xushdil-u mazlum g‘amnok. | | |
| 6 | **Qat’iyatli:**<br>Senga tutsam musallam podsholiq,<br>Xaloyiq ustida kishvarxudoliq. | | |
| 7 | **Beozor**:<br><br>Ne osiq shadin ko‘p zo‘r panja,<br>Ayog‘ida chu bo‘lmas mo‘r ranja. | | |
| 8 | **Tafakkur egasi:**<br><br>Dedi: “Har ishki qilmish odamizod,<br>Tafakkur birla bilmish odamizod. | | |
| 9 | **Mard va jasur:**<br><br>Angacha o‘g‘lig‘a hamroh bo‘lg‘ay,<br>Yamon-yaxshisidin ogoh bo‘lg‘ay. | | |
| 10 | **Shijoatli**: | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Ki,xoqon onglabon ul ish g‘animat,<br>Ki,Yunon mulkig‘a qilg‘ay azimat. | | |

Alisher Navoiyning ikki dostonida ota obrazi talqini bo‘yicha yana ko‘plab fikrlar aytish mumkin. Bularni bir kichik maqolada ochib berish qiyin. Umumiy xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “komil inson” g‘oyasi Alisher Navoiy ijodiyotining bosh g‘oyasi bo‘lib, shaxsni komil sifatlar bilan shakllanishida, kamolot kasb etishida ta’lim - tarbiyaning o‘rni muhim ekanligi, ayni shu yo‘lda farzand tarbiyasida otalar o‘rni kutilayotgan natijaning asosiy omillaridan ekanligi inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Navoiy A. Farhod va Shirin.-T.:G’afur G’ulom, 2020.
2. Navoiy A. Layli va Majnun.-T.: G’afur G’ulom, 1990.
3. Nurbayeva.M. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi.-T.:Fan,2007.
4. Navoiy A. Hayrat ul-abror.-T.:Yangi asr avlodi,2009.
5. Navoiy A. Xamsa.-T.:Yangi asr avlodi,2018.
6. I Haqqul.Navoiy shaxsi va ijodiy imkoniyatlari.Ikkinchi maqola/ Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-shaxsi-va-ijodiy-imkoniyatlari.html
7. Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-T.:2023
8. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish.-T.:Malik Print Co,2021.
9. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy.-T.:Akademnashr,2011.
10. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi.-T.:Fan,1983.